



UDK:616.333

Baxriniso KARIMOVA,
31-DIMI ingliz tili o'qituvchisi
E-mail: baxrinisokarimova1997@gmail.com

ADTI dotsenti, PhD U.Pulatova taqrizi asosida

DISCOURSE ANALYSIS OF MEDICAL TERMINOLOGY IN THE TREATISE "THE CANON OF MEDICINE" AND THEIR MODERN EQUIVALENTS (IN THE FIELD OF CARDIOLOGY)

Annotation

This article investigates the diachronic analysis of the lexical layer related to cardiology used in Ibn Sina's Canon of Medicine. The terminology analyzed in the article is studied from both etymological and semantic perspectives. Additionally, the terms borrowed from Arabic and used to describe the state of the heart are compared with their modern equivalents in medical terminology.

Key words: Cardiology, terminology, Ibn Sina, Canon of Medicine, heart, temperament, arrhythmia.

ДИСКУРСИВНЫЙ АНАЛИЗ МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В ТРАКТАТЕ «КАНОН ВРАЧЕБНОЙ НАУКИ» И ЕЁ СОВРЕМЕННЫЕ ЭКВИВАЛЕНТЫ (НА МАТЕРИАЛЕ КАРДИОЛОГИИ)

Аннотация

Данная статья посвящена диахронному анализу лексического слоя, связанного с кардиологией, использованного в «Каноне врачебной науки» Ибн Сины. Терминология, рассматриваемая в статье, изучается с точки зрения этимологии и семантики. Кроме того, термины, заимствованные из арабского языка и описывающие состояние сердца, сопоставляются с современными медицинскими терминами.

Ключевые слова: Терминология, кардиологический термин, морфологический, приставка, суффикс.

"TIB QONUNLARI" ASARI BAYONIDA TIBBIY TERMINLAR DISKURS TAHLIL VA ULARNING ZAMONAVIY SHAKLLARI (KARDIOLOGIYA SOHASI MISOLIDA).

Annotatsiya

Ushbu maqola Ibn Sinoning "Tib qonunlarida qo'llanilgan kardiologiya sohasiga oid leksik qatlamning diaxron tahlilini tadqiq etadi. Maqolada tahlilga tortilgan soha terminologiyasi etimologiyasi va semantic jihatdan o'rganildi shu bilan birga arab tilidan olingan va yurak holatini so'zlar asosida ta'riflangan atamalarining zamonaviy terminologiyasi bilan birga ifodalandi.

Kalit so'zlar: Kardiologiya, termin, Ibn Sino, Tib qonunlari, yurak, mijoz, aritmiya.

Kirish. Dunyoda o'tgan asr juda ko'plab sohalarida ilmiy yondashuvlar, kashfiyotlar asri bo'ldi va XXI asrda ham dunyo miqyosida rivojlanishdan to'xtab qolgan biror bir soha yo'q deb ayta olamiz. Ushbu rivojlanish O'zbek tilshunosligini ham chetlab o'tmadi. So'nggi yillar davomida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan o'zbek tilini yanada takomillashtirish, xalq savodxonligini oshirish masalasi o'z dolzarbligini oshirmoqda va bu sohada qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2019 yilda Prezident "chuqur tahlil asosida, bugungi talablardan kelib chiqqan holda" 30 yil oldin qabul qilingan "Davlat tili haqidagi qonun"ni mukammallashtirish to'g'risida ko'rsatmalar berdi. Shuningdek, dolzarb vazifalaridan biri qilib "davlat tilidan fundamental ilmda, zamonaviy informatsiya va kommunikatsiya texnologiyalari sohasida, ishlab chiqarish, bank-moliya tizimida, yurisprudensiya, diplomatiya, harbiy ish va boshqa yo'nalishlarda keng foydalanish lozim" ligini belgilaganligi ham fikrimizning yaqqol isbotidir. Har qanday til rivojini uning tarixiy asarlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bizning yurtimizda ham zamonaviy ilmiy asarlar bilan birgalikda tarixiy asarlarning ahamiyati, jamiyatdagi rolini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolada o'rganilishi kutilayotgan "Tib qonunlari" asari ham ana shunday necha asrlar o'tsa hamki o'z dolzarbligini yo'qotmaydigan noyob asar hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Terminologiya leksikaning tashqi ta'sirlarga eng sezgir qismidir. Aynan terminologiyada jamiyatning tilga ta'siri eng yaqqol namoyon bo'ladi, bu esa davlatlarning tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganishda, ularning shakllanishini tahlil qilishda, sivilizatsiya turlarini aniqlashda, shuningdek, madaniy, ilmiy va texnik salohiyatini belgilashda e'tiborga olinadi.

Terminologiya sohasida so'nggi yillarda juda ko'plab ilmiy asarlar yozildi, turli soha leksik qatlami iomiy jihatdan tahlilga tortildi. Feruza Abdulxairova, Lola Sultonova, Bahodir Suyunov, Madina Abdurahmonova va boshqalar aynan tibbiy terminologiyani tadqiq etgan bo'lsalar, Daliyeva Madina, G'ofurov Baxtiyor, Nozima G'afurova, Ilhom Haydarov, Mehriniso Ochilovalar esa terminologiyaning boshqa turli yo'nalishlarini o'rgangan olimlardandir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola lingvistik va kardiologik terminlar tahlilga asoslangan bo'lib, umda ingliz tilida kardiologik terminlarni yasash usullari va ularning o'zbek tildagi tarjimalari tahlili uchun qiyosiy metoddan keng foydalanilgan. Tadqiqot usullarida tasniflash metodi (atamalarini yasash usuliga ko'ra), qiyosiy tahlil metodi, statistik tahlildan foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida faqat kardiologiya sohasiga doir 100 dan ortiq terminlar o'rganildi va yasash usullari tahlil etildi.

Tahlil va natijalar. Ma'lumotlarga ko'ra, buyuk mutafakkir, faylasuf, qomusiy olim Abu Ali Husayn ibn

Abdullah ibn Hasan ibn Ali 450 dan ortiq asar yaratgan bo'lib, shundan 242 tasi shu kungacha yetib kelgan. Ularning 43tasi tibbiyot, 19tasi mantiq, 26tasi psixologiya, 23tasi fizika, 7tasi astronomiya, 1tasi matematika, 1tasi musiqa, 2tasi kimyo, 4tasi adabiyot sohalari tegishli sanaladi. Uning meditsina sohasida yozgan asarlari alohida ajralib turadi. Abu Ali ibn Sino jahon tibbiyot ilmi asos solgan alloma sanaladi. Shu bois uni Yevropada Avitsenna nomi bilan e'zozlashadi.

Ushbu maqolamiz Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari tahliliga asoslangan bo'lib, asosan ushbu asarning o'zbek va rus tilidagi tarjima nashrlari bilan ilmiy izlanishlar olib bordik. Ushbu kitob tibbiyot o'quv dargohlarida darslik sifatida qo'llanilgan bo'lib, u 5 jildan iborat. 1-jild tibbiy bilimlarning umumiy asoslariga bag'ishlangan; 2-jild alohida dorilar uchun qo'llanmaga, 3-jild muayyan a'zolarga oid kasalliklarga; to'rtinchi jild butun tanani qamrab oluvchi kasalliklar va profilaktika choralari; 5-jild esa murakkab dori nvisitalarining tavsifiga bag'ishlangan.

"Tib qonunlari" asarining 2-jildida ko'plab kasalliklar va dorilar bilan bir qatorda yurak kasalliklari va ishq masalasi ham keng yoritib o'tilgan. Ushbu kitobda muhabbatga muhtalo bo'lgan insonning holati kardiologik nuqtayi nazardan ta'rif bilan keltirilgan. Tomir urushining notekis va betartib bo'lishi haqida so'z boradi, bu esa zamonaviy terminologiyada emotsional qo'zg'alish bo'lsada, tibbiyotda aritmiya atamasi bilan ifodalanadi. Ushbu kitobning yurak kasallilari qismining o'zida 20 dan ortiq yurak holatini ifoda etuvchi terminlar va ushbu kasalliklarda qo'llaniladigan gilyohlarning nomlari keltirilgan. Quyidagi jadvalda ularning bir qanchasini zamonaviy leksik birliklari bilan ko'rib chiqamiz.

Yurak kasalliklari qismida arab tilidan olingan so'zlar mavjud bo'lib, mijoz, rutubat, moddali, moddasiz, xilt, xafaqon, govzabon,

Mijoz (مَجْزَا) - arab tilidan olingan so'z bo'lib, bu unsurlarning o'zaro aralashuvi jarayonida qarama-qarshi ta'sirlarning kamayishi natijasida hosil bo'lgan moddiy jismning yangi sifatidir yoki unsurlarning nihoyat darajada mayda bo'laklaridagi qarama - qarshi kayfiyatlarining bir-biriga ta'siri ma'lum bir chegaraga yetganda paydo bo'ladigan kayfiyatdir.

Ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Rutubat (رطوبة) - arabcha so'z bo'lib, "namlik", "ho'l modda" yoki "suyuqlik" degan ma'nolarni anglatadi. Yurak va qon aylanishi, qonning suyuqligi (ya'ni, rutubati) yurakning normal ishlashi uchun muhimdir. Ibn Sino yurak kasalliklarida rutubat balansining buzilishi mumkinligini qayd etgan. Bundan tashqari asarda yurakdagi issiq, shish, mijoz buzilishi haqida ham ilmiy ma'lumotlar bayon etilgan. Ushbu leksik birliklar bayonini quyida ko'rishimiz mumkin. "Yurak o'zini siquvchi va yoyilishiga to'sqinlik qilib, kishini o'ldiruvchi rutubat ichida bo'g'ilib qoladi" yoki "Modda (mijoz buzilishi) esa, ayniqsa rutubat, yurakning tomirlarida goho uning tanasi bilan g'ilofi orasida bo'ladi"

Xafaqon (خفقان) - yurak urishining buzilishi ma'nosini anglatib hozirgi tibbiyotda u aritmiya atamasi bilan ifoda etiladi. Ushbu atama "Tib qonunlari"da quyidagi o'rinda bayon etilgan:

"Miyaning hamkorligiga kelsak, miyani savdo xilti ko'payib miya moddasiga o'tganda arteriyalar orqali yurakka

o'tib xafaqon, quvvat tushuvi, g'amginlik, yomon fikr va yomon qasdni qo'zg'atadi.

Xafaqon - yurakka aziyat beruvchi -yurakning o'zida, yoki uning g'ilofida yo yurakka u bilan yonma-yon turgan va hamkor a'zoldan keladigan - har bir narsa sababli yurakda paydo bo'ladigan uchganga o'xshash bir harakatdir.

O'ng bosliq, so'l bosliq leksik birligi esa hozirgi terminologiyada "o'ng bo'lmacha, chap bo'lmacha" kabi atamalar bilan ta'riflanadi.

Govzabon (arabcha: لا ثور ل سان, forsha: زب ان گ ل) — qadimiy tibbiyotda xususan, Tib qonunlarida qo'llanilgan o'simlik nomi bo'lib, kampirchopondoshlar oilasiga mansub ko'p yillik begona o't. Ibn Sino va boshqa tabiblar bu o'simlikni yurak, asab tizimi va qon aylanishiga foydali dorivor vosita sifatida ishlatishgan. Xafaqon vaqtida bir qancha vaqt ketma-ket kechalari uxlash oldidan bir misqol vaznda govzabon ichish zo'r foydali.

Xilt (خِلْط) — organizmdagi tabiiy suyuqliklar bo'lib, ular qon tarkibli organizmda aylanib yurib, uning ichki muhitini hosil qiladi. Xiltlarning to'rt xili tafovut qilinadi: qon xilti, balg'am xilti, safro xilti va savdo xilti.

Buhron (بُحْرُون) - ushbu leksik birlik arab tilidan olingan bo'lib, Tib qonunlarida ba'zan yurak kasalliklari boshqa buhron ya'ni favqulotda holatlarga qarab aniqlanishi aytib o'tilgan.

Bundan tashqari ayrim yurak holati va kasalliklariga Ibn Sino so'z ta'riflaridan foydalanganini aniqladik. Bular yurakda shish (kardial edema), tiqilmalar, yurak g'ilofi-perikard, qora qon, ko'krak g'ilofi, yurak uchishi (yurakning tez urishi), yurak issiqligi, yurak sovuqligi, yurak urushi uzluksizligi va boshqalar.

Ibn Sino yurak urushiga doir holatlar va kasalliklarni quyidagicha ifodalaydi. Tomir urushining tezligi (taxikardiya), kattaligi (yurak chiqish fraksiyasi yoki qisqarish kuchi), ketma-ketlik (aritmiya) yurakning issiqlikiga, teskarisi sovuqligiga, yumushoqligi (dilatatsion kardiomiopatiya) rutubatligiga (suyuqlik, namlik) va qattiqligi (restriktiv kardiomiopatiya) quruqligiga dalil bo'ladi.

Tib qonunlari asarining 3-jildi ma'lum bir a'zolarga oid kasalliklarga bag'ishlangan bo'lsada, bir qancha soha terminlarini tahlilga tortishni joiz deb bildik. Xususan, ushbu kitobda u yunoncha vena atamasidan foydalangan holda qonni ikki turli termin bilan ajratadi: savdoiy qon va savdoiy bo'lmagan toza qon, sofin (Vena saphena)-boldir tagi tomiri, usaylim(Vena salvetalia)- qutaqaruvchi vena) deya ta'rif beriladi. Ushbu qismda 20 dan ortiq yurak dorilari ham qo'llanilgan: arabcha kelib chiqishga ega: kofur, zafaron, gazago't urug'i, kust afyun; yunoncha va lotincha kelib chiqishga ega: foshiristin, aristoloxiya, muskat yong'og'i; o'zbekcha: kunduz qiri va boshqalar. Xulosa qiladigan bo'lsak, 3-jildida ham 100 dan ortiq tibbiy terminlar o'rganildi va 30 ga yaqin kardiologiya sohasiga doirlari tanlab olinib tahlil etildi.

Bundan tashqari Tib qonunlari asarining A.Rasulov va A.O'rinboevlar tomonidan tarjima qilingan 4-kitobida ham kardiologiya sohasiga oid leksik qatlam aniqlandi. Asarda puls, fiziologiya, anatomiya, arteriya, vena, tomirlarning tovu va gunafsha ranhdagi holatlari, anevrismo kasalligi ("qon onasi"- ushbu kasallik qon tomirlarida qon oqishi bilan bog'liq), Ushbu tarjimaga binoan 68-faslda muallif tomonidan tomir urushining turlari bir qancha leksik birliklar orqali ajratiladi.

Tib qonunlarida ishlatilishi	Ta'rif	Zamonaviy tibbiy termini	Inglizcha
Bolg'a urgansimon	qattiq pulsatsiya	aortal regurgitatsiya	Aortic regurgitation
chumolisimon	juda zaif puls	shok yoki yurak yetishmovchiligi	Shock or Heart failure
Kuchli arrasimon	notekis va o'zgaruvchan puls	mirtillovchi aritmiya yoki bigeminiya (ikki xil ritm aralashishi)	Atrial fibrillation
Chap tomonda tez, o'ng tomonda sekin puls		Aorta yoki stenoz	Aorta or stenosis
Sekin tomir urushi		bradikardiya	bradycardia

Tez tomir urushi		taxikardiya	tachycardia
------------------	--	-------------	-------------

Xulosa va takliflar. Tibbiy terminlarni diaxron jihatdan o'rganish har doim o'zining dolzarbligini saqlab qolgan. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari esa tahlil uchun ayni o'rinli hisoblanadi. Xulosa o'rinda aytish mumkinki, Ibn Sino o'z faoliyati mobaynida ko'plab yunon olimlari asarini o'rganib chiqqan buning isboti esa u foydalangan talay yunon va lotin tilidan olingan terminlarda namoyon bo'ladi. Tib qonunlarini

o'rganish jarayonida 500 dan ortiq tibbiyot terminlari o'rganilib ular ichidan arab, o'zbek, yunon va lotin tilidann olingan 100 ga yaqin kardiologik terminlar va ushbu soha da ishlatiluvchi dorilar nomlari o'rganildi. Ibn Sino nafaqat tayyor holdagi tibbiy terminlardan foydalangan balki, ularning semantikasiga biroz o'zgartirish kiritgan holda o'zbek tilidagi so'zlar orqali ta'riflar ham bergan.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqi. – Toshkent, Xalq so'zi / <https://xs.uz/uzkr/post/til-millat-kozgusi>.
2. Смирнова Е.В. Структурно-семантический и лексикографический аспекты медицинской терминологии (на примере кардиологической лексики). - Ярославль, 2012.-12с
3. Firuza Invarovna Abdulxairova, TIBBIYOT TERMINLARINI METAFORIK MODELLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (monografiya).- Toshkent: Bookmany print.-79b
4. Karimov U, Hikmatullayev H, Tib qonunlari uch jildlik saylanma (2-jild).- Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.- 123b
5. Farmon Ergashovich Nurboyev, Shahlo Shavkatovna Tilloeve, Dilbar Baxriddinovna Raxmatova, IBN SINO TA'LIMOTI o'quv qo'llanma(II nashr).- Buxoro 2019.-330b
6. Karimov U, Hikmatullayev H, Tib qonunlari uch jildlik saylanma (3-jild).- Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.- 312b
7. Rasulev A., O'rinboyev A., Tib qonunlari 4-kitob (2-nashr).- Toshkent, 1980.- O'zbekiston "SSSR" Fan nashriyoti.- 771b
8. https://en.wikipedia.org/wiki/Medicine_in_the_medieval_Islamic_world
9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Govzabon>